

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN  
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY  
XULOSA**

IJ8813312408

- Loyihaning turi : Shartnoma**
- Loyihaning nomi:"Vodiy yo'l trans qurilish ta'mirlash" MCHJ va Obodonlshtirish boshqarmasi o'rtaida 1.020.000.000 so'mlik 2.850 km ichki yo'lni asfaltlash bo'yicha shartnoma**
- Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:** Oltinko'l tuman obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan 17.11.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Oltinko'l tumani  
yuridik markazi  
bosh yuristkonsulti:**



**Y.X.SIDDIQOV**

18.11.2022

Oltinko'l tuman Obodonlashtirish boshqarmasi va "VODIY YO'L TRANS QURILISH TAMIRLASH" MCHJ o'rtasida ichki yo'llarni joriy ta'mirlash ishlari bo'yicha tuzilgan

## SHARTNOMA № 20

Oltinko'l tuman.

" 22 " " 11 " 2022 yil .

Keyingi o'rnlarda "**Buyurtmachi**" deb yuritiladigan "Oltinko'l tuman Obodonlashtirish boshqarmasi" nomidan Nizomi asosida ish ko'rvuchi Boshligi M. Mirzaev, bir tomondan, matndan keyingi o'rnlarda "**Pudratchi**" deb yuritiladigan "VODIY YO'L TRANS QURILISH TAMIRLASH" MCHJ Nizomi asosida ish ko'rvuchi raxbari X.Dadaboyv ikkinchi tomondan, ushbu shartnomani tuzdilar.

### I. SHARTNOMANING MAQSADI

1.1. "**Pudratchi**" ushbu shartnomalariga muvofiq Xalk deputatlari Oltinko'l tuman kengashining 28 Sentyabr 2022-yil kungi № VI-33-66-1-15-k/22 sonli karoriga asosan "Ochik byudjet" axborat portali orqali fuqarolar tomonidan bildirilgan takliflarga asosan **Qaraqalpoq MFY Maktab, yksalish, xamda suynboy ko'chasini 2850 metr qismini** joriy ta'mirlash ishlarni bajarish majburiyatini oladi. "**Buyurtmachi**" esa "**Pudratchi**"ga bajarilishi lozim bo'lgan ishlarni tegishli me'yoriy xujjatlar va tashkilot normativlari asosida tuzilgan loyixa-smeta xujjatlarida ko'zda tutilgan mablag'ni to'lovini amalga oshirish majburiyatini oladi.

### II. SHARTNOMANING BAHOSI VA XISOB- KITOB TARTIBI

2.1. Bajarilishi lozim bo'lgan ishlarni qiymati (barcha soliqlar, yig'imlar va ajratmalarni o'z ichiga olgan holda)ga asosan joriy narxlarda **1020000000** ( Bir millyard yig'ma million ) so'mni tashkil etadi.

2.2. SHartnomalar o'rtasida imzolanib, manzillik ro'yxati tasdiqlanib moliyalashtiriladigan mablag'i aniqlangandan so'ng tegishli G'aznachilik tizimidan (Uzasbo dasturi) ro'yhatdan o'tib, mablag' Respublika yoki maxalliy byudjetdan "**Buyurtmachi**" maxsus xisobiga tushirilganidan so'ng, 10 bank ish kunida "**Buyurtmachi**" tomonidan bajariladigan ishlarni qiymatining 15 % avans tariqasida kelishilgan summa "**Pudratchi**"ning xisob raqamiga o'tkazib beradi, qolgan 85 % bajarilgan ishlarning F2 F3 xujjatlariga nisbatan to'lab beriladi.

2.3. Mablag'ning qolgan qismi Respublika yoki maxalliy byudjetdan "**Buyurtmachi**" maxsus xisobiga tushirilganidan so'ng, "**Pudratchi**" tomonidan topshirilgan bajarilgan ishlarni dalolatnomasi va bajarilgan ishlarni qiymatlari to'g'risidagi ma'lumotnomalar asosida 30 bank ish kunida o'tkazib beradi.

2.4. "**Pudratchi**" tomonidan ish to'liq bajarib topshirilib, qabul qilish-topshirish dalolatnomasi va bajarilgan ishlarni qiymatlari to'g'risidagi ma'lumotnomalar 2022 yilning 31 dekabr kuniga kadar "**Buyurtmachi**" ga topshirilishi shart xisoblanadi. Kursatilgan muddatda "**Pudratchi**" tomonidan bajarilgan ishlarni topshirilishi ta'minlanmagan taqdirda, bajarilgan ishlarni yuzasidan "**Buyurtmachi**" tomonidan moliyalashtirilish masalasi kayta kurib chikiladi.

2.5. Bajarilgan ishlarni uchun to'lovlar "**Buyurtmachi**" tomonidan pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi

### III. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

#### "Pudratchi"ning majburiyatlari:

3.1. Mazkur shartnomada ilova qilinadigan bajariladigan ishlarni jadvaliga asosan birinchi avans to'lovi tushgandan boshlab ishlarni bajarishga kirishadi va mazkur shartnomaning ishlarni bajarish to'g'risidagi 1-ilovasida ko'rsatilgan jadval asosida belgilangan oylarda ishlarni ko'rsatilgan muddatlarda bajarib topshiradi.

3.2. Barcha ishlarni tasdiqlangan smeta xujjatlariga muvofiq, mazkur shartnomada nazarda tutilgan xajmda va muddatlarda bajarish hamda "**Buyurtmachi**"ga mazkur shartnomalariga muvofiq topshiradi.

Ob'ektning ijro xujjatlarini to'liq rasmiylashtirish va buyurtmachiga topshirish, qurilish materiallarining muvofiqlik sertifikati, ishlatalgan qurilish materiallari va uskunalarning texnik pasportini va xisob varaq fakturalar (yuk xati)dan nusxa taqdim etadi.

3.3. "**Pudratchi**" mazkur shartnomada bo'yicha barcha ishlarning o'z kuchlari bilan va yordamchi pudratchilar tomonidan zarur tarzda bajarilishi xamda ob'yeqtning foydalanishga tayyor xolda topshirilishi uchun "**Buyurtmachi**" oldida to'liq mulkiy javob beradi. "**Pudratchi**" "**Buyurtmachi**" oldida yordamchi pudratchi o'z majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligining oqibatlari uchun xam javobgar bo'ladi. "**Buyurtmachi**" "**Pudratchi**" bilan tuzgan shartnomalar buzilishi bilan bog'liq talablarni yordamchi pudratchilarga qo'ymaydi.

3.4. "**Pudratchi**" geodeziya nuqtalariga, liniyalar va darajalarga nisbatan ob'ektning to'g'ri va zarur tarzda belgilanishi, shuningdek balandlik belgilari, o'lchamlari va bo'liq o'qlarining muvofiqligi to'g'ri joylashganligi uchun javob beradi.

Agar ishlarni bajarish jarayonida geodeziya ishlarida xatolar aniqlansa, "**Pudratchi**" tegishli tuzatishlarni o'z xisobidan amalga oshiradi.

3.5. Agar berkitilgan (yopilib ketadigan) ishlarni "**Buyurtmachi**"ning tasdig'isiz bajarilgan bo'lsa yoki u bu xaqda xabardor qilinmagan bo'lsa, yoki kechikib xabardor qilingan bo'lsa, u xolda uning talabi bo'yicha "**Pudratchi**" "**Buyurtmachi**"ning ko'rsatmasiga muvofiq berkitiladigan ishlarning istalgan qismini o'z xisobidan ochishga, so'ngra uni tiklashga majburdir.

3.6. Ishlar boshlangan paytdan boshlab ular tugallangungacha "**Pudratchi**" qurilish montaj ishlarni bajarilishini yuritish daftari (jurnal)ni yuritadi. Daftarda butun ishlarning borishi aks ettiriladi. "**Pudratchi**" daftar (jurnal)da

**Buyurtmachi**" tomonidan asosli ravishda ko'rsatilgan kamchiliklarni 3 kun muddatda bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

3.7. Ob'yeqt foydalanishga topshirilgunga qadar ob'yektning tasodifiy yo'q qilinishi va shikastlanishiga "Pudratchi" to'liq javobgar bo'ladi.

#### "Pudratchi"ning huquqlari:

3.8. Bajarib beriladigan ish uchun olinadigan avans haq to'lanishini mazkur shartnomaning 2.4-bandiga ko'ra, ishni bajarib topshirgandan so'ng, mazkur shartnomaning 2.5-bandiga ko'ra to'la xajmda xisob kitob qilinishini talab qilish.

Bajarib berilgan ishni qabul olish asossiz ravishda rad etilishi natijasida etkazilgan zararni qoplanishini talab qilish.

3.8. Loyixa-smeta xujjalarda bajarilishi ko'zda tutilgan ish xajmlari "**Pudratchi**" tomonidan to'liq va sifatlari bajarilib, ayrim ish xajmlari va xarajatlari smeta xujjalarda ko'zda tutilgan mablag'lardan amalda iqtisod qilinsa, ushbu mablag'ni ayrim xarajatlar bo'yicha ko'riliishi mumkin bo'lgan zararni va qo'shimcha bajarilishi lozim bo'lgan ish xajmlari xarajatlarini qoplash uchun ob'ektning umumiy qiymati doirasida asoslovchi xujjalat asosida "**Buyurtmachi**"ni xabardor qilgan xolda yo'naltirilishi mumkin.

3.8. "**Pudratchi**" zarur xollarda ayrim ish turlarini bajarilishida loyixa-smeta xujjalarda belgilangan mashina-mexanizmlar o'rniga, o'z imkoniyatlardan kelib chiqqan xolda, o'rindosh mashina-mexanizmlardan foydalanishi, belgilangan sifat va texnologik jarayonning buzilmasligini ko'rsatuvchi sifat laboratoriysi va loyixachi tashkilotning tegishli xulosasi a'sosida amalga oshirilishi mumkin.

3.9. Bajarilgan va moliyalashtirish uchun qabul qilingan ish xajmlarida arifmetik xato va boshqa kamchiliklarga yo'q qo'yilganligi aniqlanganda, keyingi oylarda bajarilgan ish xamjlari tegishli o'zgartirishlar (korrektirovka) kiritilgan xolda rasmiylashtiriladi.

#### "Buyurtmachi"ning majburiyatları:

3.10. Tasdiqlangan loyixa-smeta xujjalari asosida bajarilgan ishlarni me'yoriy xujjalari talablari darajasida qabul qilib olish.

3.11. Bajarilgan ishlarni uchun xaq to'lanishi mazkur shartnomaning 2.4-bandiga ko'ra, ishni bajarib topshirgandan so'ng, mazkur shartnomaning 2.5-bandiga ko'ra to'la xajmda xisob kitob qilinadi.

#### "Buyurtmachi"ning huquqlari:

3.12. "**Pudratchi**"dan amaldagi davlat standartlari va boshqa me'yoriy xujjalari bilan ta'minlashni talab qilish.

3.13. Kamchiliklarni bepul bartaraf etilishi yoki kamchiliklarni boshqa shaxs tomonidan to'g'rilanishi xarajatlarini qoplanishini talab qilish.

3.14. "**Pudratchi**"dan shartnomada ko'rsatilgan ishlarni loyiha xujjalari asosida ishni sifatlari bajargan holda qabul qilib olish.

3.15. "**Pudratchi**" tomonidan ishlatiladigan materiallar va asbob uskunalarni ish xujjalari muvofiqligini nazorat qilish.

3.16. Texnik kuzatuvchi ishlarni bajarilishining va shartnomaning butun davri mobaynida ishlarning barcha turlari bilan to'siqsiz tanishish xuquqiga egadir.

3.17. Agar "**Pudratchi**" shartnomani amal qilish muddati davomida belgilangan ob'ektni "**Buyurtmachi**" ga topshirmagan taqdirda, "**Buyurtmachi**" mazkur shartnomasi muddatlari tugagandan so'ng, bajarilgan ishlarni uchun mablag' berish majburiyatini olmaydi.

## IV. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

4.1. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatini bajarmasa yoki zarur darajada bajarmasa majburiyatni bajarmagan tomon ikkinchi tomonga etkazilgan zararni to'laydi.

4.2. "**Pudratchi**" ob'ektni o'z vaktida topshirmaganligi uchun "**Buyurtmachi**"ga har bir kechiktirilgan kun uchun shartnoma majburiyatlarini bajarilmagan qismining 0,5 % i miqdorida penya to'laydi. To'lanadigan penyaning summasi bajarilmagan majburiyatlar bahosining 50 % idan oshmasligi kerak.

4.3. Aniqlangan kamchilik va nuqsonlar "**Pudratchi**" tomonidan o'z vaqtida bartaraf qilinmasa, yoki ishlarni umuman bajarilmasi, "**Buyurtmachi**" to'lovlarni to'htatib, lozim darajada, yoki umuman bajarilmagan ishlarning 20 % i miqdorida jarima undirilishini talab qilish huquqiga ega.

4.4. Bajarilgan ishlarni uchun "**Buyurtmachi**" tomonidan o'z vaqtida haq to'lanmasa, har bir kechiktirilgan kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 % miqdorida penya to'laydi. To'lanadigan penyalarning umumiy summasi kechiktirilgan to'lovlarining 50 % miqdordan ortmasligi kerak.

4.5. To'lanadigan penya va jarimalar shartnoma majburiyatlarini buzgan tomon ikkinchi tomonga ana shu majburiyatlarini bajarmaslik oqibatida etkazgan zararlarni qoplash javobgarligidan ozod etilmaydi.

4.6. Ushbu shartnomada qo'zda tutilmagan javobgarliklar O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 29 avgustdagagi 670-1-sonli "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuning 25-32 moddlari asosida belgilanadi.

## V. ENGIB BO'LMAKDIGAN KUCH (FORS MAJOR) XOLATLARI

5.1. Ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni to'liq yoki qisman bajarilmasligi tabiat xodisalari va boshqa engib bo'lmaydigan kuch xolatlari natijasida kelib chiqsa va bu xolatlar shartnoma shartlarini bajarilishiga bevosita ta'sir etsa tomonlarning javobgarlikdan ozod etilishi Qonun xujjalarda belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

5.2 "Pudratchi" ning mazkur shartnomani bajarishi uchun boshqa shartlashuvchi sheriklari, yordamchi pudratchilar tomonidan majburiyatlarning buzilishi, majburiyatni bajarish uchun zarur tovarlarning bozorda yo'qligi, "pudratchi" da zarur mablag'larning bo'limganligi fors-major xolatlariga kirmaydi.

## VI. SHARTNOMANI O'ZGARTIRISH, BEKOR QILISH VA NIZOLARNI XAL QILISH TARTIBI

6.1. Mazkur shartnoma belgilangan shaklda tomonlarning o'zaro kelishuviga muvofiq o'zgartirilishi va bekor qilinishi mumkin.

6.2. SHartnoma asosida belgilangan mablag'ni moliyalashtirilishi bilan bog'liq muammolar kelib chiqqan taqdirda "Buyurtmachi" va "Pudratchi" o'zaro kelishuv asosida shartnomaga o'zgartirish kiritishi mumkinligi ma'lumot uchun qabul qilinadi.

6.3. Mazkur shartnoma bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizo va kelishmovchiliklar o'zaro muhokama yo'llari bilan xal etiladi. Agarda o'zaro muhokama yo'li bilan xal etish imkon bo'lmasa, Qonun xujjalarda belgilangan tartibda Andijon tumanlararo Iqtisodiy sudi orqali xal etiladi.

## VII. SHARTNOMANI AMAL QILISH MUDDATLARI

7.1. SHartnoma tomonlar imzolab, xududiy G'aznachilik tizimidan (Uzasbo dasturi) ro'yhatdan o'tgan kundan kuchga kirib, 2022 yil 31 dekabrgacha amal qiladi.

7.2. Ob'ektning joriy ta'mirlash bo'yicha mablag' Respublika yoki maxalliy byudjetdan "Buyurtmachi" ning maxsus xisob raqamiga 2022 yil 31 dekabr kuniga qadar ajratilmagan taqdirda mazkur shartnomaning amal qilish muddati qayta ko'rib chiqiladi.

7.2. SHartnoma 2 nusxada tuzilib, ikkala nushasi ham huquqiy jihatdan teng kuchga ega.

## VIII. TOMONLARNING REKVIZITLARI

### Buyurtmachi:

Oltinko'l tuman obodonlashtirish boshqarmasi

Markaz MFY CHINOBOD ko'chasi

SHxy:40172286003202704520411009

INN: 204529051 OKONX: 90211

O'zb.Res.Moliya Vazirligi G'aznachiligi

H/R23402000300100001010

MFO:00014 INN: 201122919

Markaziy Bank Toshkent sh XKKM

Raxbar:

M. Mirzaev

M.U. (imzo)



### Pudratchi:

"VODIY YO'L TRANS QURILISH TAMIRLASH" MCHJ

Andijon shaxar Axmadjon xoji MFY

Bank:Ipateka ATIB Andijon viloyti filiali

H/R:20208000305014503001 MFO: 00059 INN:302462509

Raxbar:

X.Dadaboyev

M.U. (imzo)



Узбек, рус

«Тасдиклайман»

Олтинкул туман Хокимлиги хузуридаги  
Ободонлаштириш бошкармаси  
рахбари  М.Мирзаев

Олтинкул туманида “Очиқ бюджет” ахборот портали оркали фукаролар томонидан билдирилган таклифларга овоз бериш буйича 2022 йил 2 мавсум танлови голиби деб топилган Корақалпок МФЙ мактаб ва суюнбой, юксалиш, кучасини 8 октябрда тасдикланган манзилли дастурга асосан асфалтлаш ишлари учун

Техник топширик

	Асосий маълумотлар	Иштирокчилар учун маълумотлар
1	Буюртмачи	Олтинкул туман Ободонлаштириш бошкармаси
2	Танлов мазмуни ёки номи	Корақалпок МФЙ мактаб ва суюнбой, юксалиш, кучасини 2850 метр кисмини меёрий талаблар асосида асфалтлаш ишлари
3	Танлов эълон килинадиган жой	Олтинкул туман Ободонлаштириш бошкармаси Etender.uzex.uz сайти.
4	Алока учун шахс	М.Аскарова 97-997-76-75
5	Тижорий таклифи тақдим этиш шартлари элетрон равища	Тақдим этилаетган тижорий таклифда лойихани бажариш суммаси, иш бажариш вакти аник жадвал асосида курсатилиши шарт.
6	Корхонанинг умумий молиявий иктисодий курсаткичлари тутрисида маълумотлар сайтда киритилган 4 та критерий асосида тартиб билан маълумотлар базасига жойлаштирилиши шарт	Танлов иштирокчилари шартномани бажариш учун зарур техникавий, молиявий, моддий, кадрлар ресурсларининг ҳамда бошқа ресурсларнинг мавжудлиги; шартнома тузиш учун қонуний ҳуқуқقا эгалик соликлар ва бошка мажбурий туловларни тушашиб буйича карздорликнинг мавжуд эмаслиги. Инсофизиз ижрочиларнинг ягона реестирида кайд этилмаганлиги хакидаги маълумотни тақдим этилиши таълаб этилади.
7	Курилиш рейтинг балл курсаткичи	«Соҳавий Курилиш ташкилотлари рейтинги», Автомобил йуллари блокигидаги Ишончлилик тоифасидан скринсчет яни кучирма
8	Бажариладиган ишлар	Корақалпок МФЙ мактаб ва суюнбой, юксалиш, кучасини 2850 метр кисмини лойиха смета хужжатида курсатилган талабларга мос равища асфалтлаш ишларини бажариш.
9	Танловга таклифлар бериладиган тил	Узбек, рус
10	Молиялаштириш манбаси	Махалий бюджет маблаглари хисобидан.